

МАКТАВГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILYATLARINI RIVOJLANТИRISHDA PEDAGOG- TARBIYACHILARNING O'RNI.

PhD. Shobduraximova Umriniso

Mutallibova Odinaxon Mirzaolimjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika yo'nalshi 1-bosqich magistranti.

Andijon, O'zbekiston

Telegram manzil:Lady0203

Mobil raqam:+998905280743

Annotatsiya. Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ijodiy qobilyatlarini rivojlantrishda pedagog-tarbiyachilarning ahamiyati, pedagogik va psixologik jihatlari, shu bilan birgalikda, 6-7 yoshdagi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ijodiy qobilyatlarining rivojlantrishdagi pedagog-tarbiyachilarning kasbiy faoliyati davomida foydalanadigan metodlari, rivojlantrish jarayonida duch kelindigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy qobilyat, ijodiy fikrlash, ijodiy muhit, ijodiy rivojlanish, mahorat, o'yin, pedagogik faoliyat

Аннотация. В данной статье обосновано значение, педагогические и психологические аспекты деятельности педагогов-воспитателей в развитии творческих способностей детей дошкольного возраста, а также методы, используемые педагогами-воспитателями в процессе профессиональной деятельности в развитии творческих способностей детей дошкольного

возраста 6-7 лет, трудности, с которыми они сталкиваются в процессе развития, и способы их преодоления.

Ключевые слова: творческие способности, творческое мышление, творческая среда, творческое развитие, умение, игра, педагогическая деятельность

Abstract. This article is based on the importance, pedagogical and psychological aspects of educators in the development of creative abilities of preschool children, together with the methods used by educators in the development of creative abilities of preschool children aged 6-7 years, the difficulties faced in the development process and methods of their elimination.

Keywords: creative ability, creative thinking, creative environment, creative development, skill, game, pedagogical activity

Hozirgi kunda yurtimizda maktabgacha ta'lim tizimi tobora rivojlanib bormoqda. Yurtboshimiz tomonidan maktabgacha ta'lim sohasiga alohida e'tibor berilmoqda va bu ularning qaror farmonlarida o'z isbotini topmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi¹ qarori hamda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi² qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarorlarda ham belgilangan.

Oxirgi 10 yilni yodga olsak, 2015-yilda 3-6 yoshdagи bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovi 634 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-son

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-son

raqam deyarli 2 millionga yetdi, bu esa milliy qamrovning 39 foizdan ortiq o'sishini anglatadi. 2019-yilda Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi, bu esa tizimni markazlashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Hozirgi kunda O'zbekistonda 14 mingdan ortiq maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyayev 2024-yilning 2-iyul kuni maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini yanada rivojlantirish uchun yana yangi farmon³berdilar, ushbu farmonda quyidagi so'zlarni aytib o'tganlar:

Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi zimmasiga quyidagi qo'shimcha funksiyalarni bajarish yuklatilsin:

Ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagি bolalarni xar tomonlama intellektual, axloqiy va estetik, jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

Maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini joriy etish;

Maktabgacha ta'limning o'quv reja, dastur va o'quv-metodik majmularini takomillashtirish.ularning umumiy o'rta ta'lim dasturlari bilan uzviyligini ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, zamonaviy ta'limda katta ahamiyatga ega. Olimlar va pedagoglar bolalar ijodini rivojlantirishning turli usullari va yondashuvlari haqida o'z qarashlarini ilgari surgan.

Lev Vigotskyning fikriga ko'ra, ijodiy faoliyat bolalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. U, bolalar ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish orqali atrof-muhitni o'rganadilar va o'zlarini namoyon qiladilar, ijodiy jarayonlar orqali bolalar o'z fikrlarini ifodalashni, muammolarni hal qilishni va o'ziga xos fikrlarni shakllantirishni

³ Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 2024-yil 2-iyul ПФ-98

o'rganishini ta'kidlaydi. U bolalar uchun qulay ijodiy muhitni yaratish, o'yin va boshqa faoliyatlar orqali ijodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashni muhim deb hisoblaydi.

Maria Montessori o'z ta'limgiz tizimida bolalarning ijodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratgan. Uning fikriga ko'ra, bolalar o'yin orqali o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Montessori metodida bolalar o'zlarini ifodalashda erkinlikka ega bo'lib, ularni yaratuvchanlik va tasavvur qilishga undaydi.

O'zbek olimlari ham maktabgacha ta'limgiz yoshidagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhimligini ta'kidlab, bolalarning erkin fikrlash, tasavvur qilish, o'zini ifodalash va yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishgan. Quyidagi ba'zi fikrlarni keltirish mumkin:

Xo'jayeva N. (pedagog): Xo'jayeva, bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'yin va badiiy faoliyatni muhim vosita sifatida ko'rgan. U bolalar ijodini rivojlantirishda o'yin, musiqa, rasm chizish va hikoya qilish kabi faoliyatlarning zarurligini ta'kidlagan. U bolaning ijodiy fikrlashini va tasavvurini shakllantirishda muhim o'rinni tutadi.

Ismoilov M. (pedagog-psixolog): Ismoilov maktabgacha ta'limgiz bolalarning ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirishda muhitning roli juda katta ekanligini ta'kidlagan. U, shuningdek, bolalarni haqiqiy hayotga yaqin vaziyatlarda, real hayotga oid vaziyatlarda ijodiy fikrlashga undash, o'zgaruvchan muhitda ishlashni o'rgatish zarurligini aytgan.

Shu bilan bir qatorda, Maktabgacha ta'limgiz tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog-tarbiychilar ham o'z ish tajribalarini oshirib va ish faoliyati davomida bolajonlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yangi metodlar ishlab chiqib va amaliyotda qo'llab kelmoqdalar.

Pedagog — bu ta'limgiz va tarbiya sohasida faoliyat yurituvchi yetuk mutaxassis bo'lib, uning birdan-bir asosiy vazifasi bolalarni bilim olish, axloqiy-ruhiy

va ijodiy rivojlanishlariga yordam berish hisoblanadi. Qolaversa, ular bolalarning o‘z salohiyatini ochib berish, ularning ijodiy qobiliyatlarini to‘g’ri rivojlantirish uchun turli uslublar va metodlarni qo‘llab, kelajak avlod uchun mutaxasis bo‘lib yetishishiga ko’mak beruvchi shaxsdir.

Pedagogik faoliyat orqali o‘quvchilarni qobiliyatlarini aniqlash har bir pedagogning muhim vazifalaridan biri, chunki dars o‘tish jarayonida o‘qituvchi pedagog tomonidan berilayotgan ma‘lumotlarni o‘zlashtirilishiga qarab ham pedagog o‘quvchining qiziqishlarini, qobiliyatlarini bilib olishi mumkin. Qobiliyat—insonning individual salohiyati va imkoniyatlaridir. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko‘nikma, malakadan farq qiladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat anglashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko‘nikma va malakalarining egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Demak qobiliyati yuqori bo‘lgan o‘quvchi talabalar o‘zlari ajrab chiqishadi. O‘zlari ijtimoiy munosabatlarda o‘z istedodlarini namoyon eta olmayotgan talabalarning o‘z qobiliyatlarini namoyon etishlariga sharoit yaratib berishi, ko‘p tomonlama qo‘llab quvvatlashi kerak. Shu nuqtai nazardan talaba portfoliosi talabaning ayni qobiliyatlarini va istedodlarini namoyon etish, ko‘rsatish uchun qulay platforma vazifasini o’taydi.⁴

Ijodiy qobiliyatlar - bu shaxs sifatining individual xususiyatlari bo‘lib, u turli ijodiy faoliyatni amalga oshirish muvaffaqiyatini belgilaydi. Ijodkorlik elementi inson faoliyatining har qanday turida bo‘lishi mumkinligi sababli, nafaqat badiiy ijod, balki texnik ijodkorlik, matematik ijodkorlik va hokazolar haqida ham gapirish o‘rinli bo‘ladi.⁵

Ijodiy qobiliyat — bu insonning yangi va original fikrlar yaratish, yangi g’oyalarni amalga oshirish, turli muammolarni ijodiy yo‘l bilan hal qilish, mavjud resurslardan

⁴ Toshkent “Stars International University” 2022 pedagogika fanlari bo‘yicha maqolalar to‘plami

⁵ “YANGI O‘ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI” jurnali, Islomxo‘jayeva Gulnoza Qanoatxo‘ja qizi “Maktabgacha yoshdag‘i bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantish usullari” maqolasi

yangi va foydali narsalarni ishlab chiqarish qobiliyatidir. Ijodiy qobiliyat, odatda, tasavvur, ijodiy fikrlash, qarorlar qabul qilish, estetik va badiiy sezgi bilan bog'liq bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagog-tarbiychilarimizning o'rni nihoyatda muhimdir. Ular bolalarning ijodiy salohiyatlarini aniqlash, rivojlantirishda bevosita rol o'ynaydilar. Pedagoglar nafaqat bilim beruvchilar, balki bolalar uchun ilhom manbai, motivator va qo'llab-quvvatlovchilardir. Pedagog-tarbiyachilar bolalarga ijodiy imkoniyatlar yaratib, ularni o'zlarining tasavvurlarini erkin ifoda etishlariga yo'l ochadilar.

Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirishda turli xil metodikalar va o'yinlardan foydalanishimiz mumkin. Bu esa bolajonlarga yangicha tasavvurlarni yaratish, shaxsiy fikrini mustaqil ifoda eta olish, ijodiy o'ylashlariga yordam beradi.

Metodlarimizning eng osonlaridan bittasi bu – O'yindir. Bu metodimiz tufayli bolalarda dunyoqarashi kengayadi, ijodiy fikrashi oshadi. Qolaversa, o'yin metodikasi maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi, o'yin orqali bolalar tasavvurini, ijodiy yondashuvlarini rivojlantiradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni Ijodiy qibiliyatni rivojlatirish usullari.

Shuni unutmaslik kerakki, ijodkor bo'limgan yoki qobiliyatsiz bolani o'zi yo'q. Har bir bolada bilim olishga bo'lgan qiziqishlari yuqori bo'ladi. Ularni to'g'ri yo'naltirish va rivojlantirish biz pedagog-tarbiyachilarga, ota-onalarga va atrof-muhitga bevosita bog'liqdir. Ammo ba'zida biz kattalar bolani ijod namunasini ko'p tanqid qilib yuboramiz. Ortiqcha tanqidlar natijasida bolada ruhiy tushkunlik yuzaga kelishi mumkin, bu esa bolaning kelajagiga nojo'ya ta'sir etishi mumkin. Keraksiz tanqidiy fikrlardan saqlangan holda, bolaga ijodiy erkinlik berib, u istagancha ijod

qilsin, rasm chizsin, plastilindan yoki rangli qog'ozlardan, turli narsalar yasasin. Hozirgi kunda Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolajonlarning turli ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'yin orqali bilim olishlari uchun o'rnatilgan burchaklar (yo'nalishlar) juda muhimdir. Bunday burchaklar bolajonlar uchun o'rgatuvchi, ijodiy va rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Bularidan bittasi san'at burchagi bo'lib, bu burchakda bolalar chizish, bo'yash, plastilin bilan ishlash va boshqa san'at faoliyatlarini amalga oshiradilar. Ular tasavvurini va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Bu yerda bolalar turli materiallardan foydalanib, o'z ijodiy asarlarini yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir yurtning asosiy kuchi aqliy, jismoniy va ma'naviy jihatdan yuksalib borayotgan, faqat kelajakka qarab intilayotgan yoshlarning qo'lida. Har bir bolaning eng birinchi ta'lif va tarbiya oladigan maskan – Maktabgacha ta'lif tashkiloti hisoblanadi. Bolalarning ma'naviy rivojlanishi, qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish va yanada rivojlantirishda pedagog-tarbiyachilarning o'rni kattadir. Har bir pedagog o'z pedagogik mahoratidan foydalanib bolalarning ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirib boradi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-soni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-soni
3. Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 2024-yil 2-iyul ПФ-98
4. Toshkent "Stars International University" 2022 pedagogika fanlari bo'yicha maqolalar to'plami
5. "YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI" jurnali, Islomxo'jayeva Gulnoza Qanoatxo'ja qizi "Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qibiliyatlarini rivojlantish usullari" maqolasi
6. .F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Qayumova, N.M.Azamova "Maktabgacha pedagogika.Darslik 2019 yil.